

RUBOBLAR OILASINIG PAYDO BO‘LISHI VA ULARNING MILLIY CHOLG‘U IJROCHILIGIDAGI O‘RNI

Inoyatov Ismat Jo‘raboy o‘g‘li

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası 12-Ivokal 20 guruh talabasi

Hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanishi bilan birga, musiqiy merosimizni ham o‘rganishni taqozo etadi. Zotan musiqiy merosimiz namunalarida ajdodlarimizning qalb qo‘rida saqlangan ezgu niyatlari, orzu-umidlari, nozik hissiy kechinmalari, umuman borliq haqidagi falsafiy mushohadalar o‘zining yorqin ifodasini topgandir. Binobarin, milliy kuy taronalarni cholg‘ular vositasida tinglar ekanmiz, ularda tarannum etilgan “asrlar ovozi” dilrabo ohanglarda mujassam etilgan nozik va insoniy his-tuyg‘ular qalbimizni hayajonga soladi va ayni paytda, ota-bobolarimizning meros qilib qoldirgan an‘analarini qadrlashga undaydi. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda, qadimiy sozlarimizni an‘anaviy tarzda chuqur o‘rganib, uni xalq orasida ommalashtirish muhim masalalardan biridir.

Manbalarda qayd qilinishicha, torli tirnama sozlar eramizning II-III asrlarida Movarounnahr xalqlari orasida keng tarqalgan. Afsuski, islomgacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati haqida ma‘lumot beruvchi manbalar nihoyatda kamligi bois, ushbu cholg‘ular haqida to‘liq ma‘lumot berish imkoniyatiga ega emasmiz. Torli tirnama sozlar sulolasiga mansub rubob sozi o‘zbek xalqi musiqiy hayotini bezab turgan cholg‘ulardan biridir. Rubob haqidagi ma‘lumotlarni asosan X-XVII asrlarda yozilgan risolalardan topish mumkin. O‘rta asrda yashagan buyuk olim Al-Forobiy musiqqa haqidagi risolasida “Kishi ovoziga yaqin tovush chiqaradigan cholg‘u asboblari-rubob, nay va surnaydir; ular ovozga juda yaxshi taqlid qiladi. Cholg‘u asboblari ashulaga jo‘r bo‘ladi”-deb yozadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra rubob sozi ancha ilgari paydo bo‘lgan. U uchburchak shaklida bo‘lib kamoni sozlar tarkibiga kirgan. Ilk rubob sozining bitta tori bo‘lgan.

Tarixiy manbalardan shu narsa ma‘lumki, ushbu sozni XII asrda Maldaviya xalqlarining barchasi sevib ijro qilgan. Mavlaviya vakillarining aqidasi ko‘ra rubob sozining har bir burchagi ma‘lum bir ramziy ma‘no kasb etib, birinchi burchak-sharq, ikkinchi burchak-g‘arb, uchinchi burchak-janub va to‘rtinchi burchak-shimol ma‘nolarini anglatgan. Keyinchalik ushbu soz olti burchak shaklida qaytadan yasaladi. Bunda beshinchi burchak-yer sathi va oltinchi burchak esa osmon ma‘nolarini bildirgan. Bu soz tuzilishi jihatidan ma‘lum darajada ruboblar sulolasiga o‘xshagan.

Atoqli adabiyotshunos olim va o‘zbek klassik musiqasining bilimdoni Abdurauf Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kitobida rubob haqida quyidagilar yozilgan: “Yozuvchisi ma‘lum bo‘lmagan bir musiqaga oid tarixiy” asarda rubobning sulton Muhammad Xorazmshoh tomonidan Xorazmda paydo bo‘lg‘ani yoziladi. Bu kitobni ko‘rganim kun men ham shunga ishong‘an edim. Biroq yigirmanchi yillarda Hindistondan keltirganim “Sorang” ismli bir cholg‘uning rubobg‘a juda o‘xshashlig‘i meni shoshirg‘an edi. So‘ngralari qo‘limg‘a tushgan Darveshali “Risolayi musiqiy”sida bu cholg‘uning Balxda yasalg‘ani, Muhammad Xorazmshoh zamonida Xorazmda rivoj topg‘ani ko‘rsatiladi. Bu cholg‘uning gavdasini to‘rt asos qismg‘a bo‘lmak mumkindir: qorin, ko‘krak, bo‘yin, bosh qorin, ko‘krak ham bo‘yin qismlarining uchalasi bir bo‘lak tut yog‘ochidan “qazma” yo‘li bilan yasaladir. Bosh so‘ngra yasilib, soppg‘a yopishtiriladir. Rubobning qorni bilan ko‘kragi 2,5 santimetrlik bo‘g‘oz bilan bir-biriga bog‘lanmish ikki chuqur idishga o‘xshaydir. Qorin ham bo‘g‘ozning usti kiyik yo echki terisi bilan qoplanadir. Ko‘krak bilan bo‘yinning ustini esa, ingichka taxta bilan qoplaydirlar. Qorinning bo‘yi 21 santimetr, eni 18 santimetr, ko‘krakning bo‘yi 28

santimetr, eni qoring'a tomon 10 santimetr, bo'ying'a tomon 5 santimetr bo'ladur. Xarak tubdan to'rt barmoq yuqorida turadir. Ichakdan yasalg'an besh tori borkim, "skripka" torlarig'a o'xshab, yo'g'onlikda farqlidir. Bundan boshqa o'n ikkita "tor osti" torlari bor. Bular tanbur simidandir. Cholg'uchi rubob chalg'anda bularni chertmaydir, bularning xizmati asl torlarga chertish ta'siri bilan titrab, asl tor tovushig'a o'zlarining mungli, titrak tovushlarini qo'shmoqdir".¹

Demak, yuqorida keltirilgan fikrlar hamda o'tmish olimlarning musiqiy risolalaridan shu narsa ayonki, milliy sozlarimizdan rubob ham o'zining uzoq tarixiga ega. Rubob taxminan XIV-XV asrlarda ansambllar tarkibida paydo bo'la boshlaydi. Rubobning dastlabki ko'rinishi hozirgisidan kichikroq bo'lgan. Uning kosasi qozma ya'ni o'yilib ustiga teri qoplangan. Dastasidagi pardalar ipak yoki ichakdan tayyorlangan maxsus moslama bilan bog'langan va yumshoq narsa bilan chertib chalingan. Kerak bo'lganda pardalar pastga yoki balandga surilib ijro qilingan. U 18 pardadan iborat bo'lib, tovushqatori diatanik shaklda tuzilgan. Rubob Markaziy Osiyo xalqlari shuningdek, Janubiy Xitoyning Sinsizyan (Qashqar) viloyatida yashovchi uyg'urlar orasida keng tarqalgan torli-tirnama cholg'u asbobdir.

1935 yildan boshlab an'anaviy xalq cholg'u asboblarining ta'mirlanishi davrning tabiiy ehtiyoji edi. Chunki o'zbek cholg'ushunosligida boshqa sozlar qatori mizrob (mediator) bilan chalinadigan sozlarning ham ko'p qirraligini ko'rsatish va ularning ijro imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida mazkur cholg'ularning bir qancha xillari ixtiro qilindi. Ayni paytda mizrob bilan chalinadigan guruhga kiradigan cholg'ularning quyidagi turlari mavjud:

- ✓ qashqar rubobi,
- ✓ prima rubobi,
- ✓ messosoprana rubobi,
- ✓ alt rubobi,
- ✓ afg'on rubobi,
- ✓ ud,
- ✓ tanbur.

Bu sozlarning barchasi hozirda temperatsiya qilingan bo'lib, ya'ni tovush qatorining oktava oralig'i teng o'n ikki yarim tonlarga bo'lingan.

Qashqar rubobi - o'zbek xalq cholg'u sozlari ichida alohida o'rin tutadi. Bu cholg'u asbobi o'zining jarangdor, tiniq ovozi bilan inson qalbiga yaqinligi, o'rganish va chalish jihatidan bir muncha qulaylikka ega ekanligi bilan xalqimizning sevimli sozlaridan biriga aylanib qolgan. U cho'ziqsimon kosa va ikki shoxli uzun dastadan iborat bo'lib yarim doira shaklida o'yilgan. Kosaxonasining ustki qismi teri bilan qoplangan bo'ladi.


Qashqar rubobi qayta ta'mirlanib, dastasiga bog'lanadigan ichak parda latundan yasalgan parda bilan almashtirildi, dastasining uzunligi qisqartirildi, pardalar soni ko'paytirilib, ijro etish texnikasi yengillashtiriladi. Natijada turli xarakter va qiyinchilikdagi musiqa asarlarini chalish imkoniyati yaratildi. Ovoz tembri (tusi)ga qaraganda o'rta registrda jaranglaydigan sozdir. Uning beshta tori bo'lib, birinchi va ikkinchi juft torlari po'lodan, uchinchi yakka tori esa ipakdan bo'ladi. Har bir juft tor yo'g'onligi asosida joylashgan bo'lib, unison tarzda sozlanadi. Demak, eng ingichka juft tor birinchi oktavaning **lya**, ikkinchi juft tor birinchi oktavaning **mi**, uchinchi yakka tor esa kichik oktavaning **si** tovushiga sozlanadi. Simlar orasi sof kvarta intervali asosida joylashgan.

Qashqar rubobi uchun yozilgan musiqiy asarlar skripka kalitida yoziladi, yozilganiga nisbatan bir oktava past eshitaladi.

¹ Фитрат А. Ўзбек классик музыкаси ва унинг тарихи Т., 1993. 29 бет.

yozilishi

eshitilishi



Ovoz kengligi kichik oktavaning **si** yoki **lya** notasidan, uchinchi oktavaning **lya** notasigacha.

yozilishi

eshitilishi




Prima rubobi – kichraytirilib yangidan yasalgan soz, unda to‘rtta tor mavjud. Birinchi tor ikkinchi oktavaning **mi**, ikkinchi tor birinchi oktavaning **lya**, uchinchi tor birinchi oktavaning **re**, to‘rtinchi tor esa kichik oktavaning **sol** tovushlariga sozlanadi. Torlar orasi sof kvinta intervaliga teng. Ushbu soz yuqori registrli cholg‘u hisoblanadi.

Notalari skripka kalitida yoziladi, qanday yozilsa shunday eshitiladi. Prima rubobining aplikaturasi g‘ijjak yoki skripka soziga o‘xshaydi. U ham qashqar rubobi kabi mizrob bilan chalinadi.



Ovoz hajmi **sol** kichik oktavadan, to‘rtinchi oktavadagi **mi** tovushiga qadar bo‘ladi.




U texnik cholg‘u asbobi bo‘lib, turli xarakterdagi barcha musiqa asarlarini ijro etishda yakkasoz sifatida hamda orkestrlar tarkibida ishlatiladi.


Messosoprano rubobi - yangi yaratilgan torli tirnama cholg‘ular oilasiga mansub soz bo‘lib, o‘rta registr ovozigacha ega. U tuzilishi jihatidan qashqar rubobiga nisbatan kichik hajmda yasalgan. Uning po‘latdan yasalgan beshta tori bo‘lib, birinchi ikkita juft tori **lya** va ikkinchi juft tori **mi** birinchi oktavaning, uchinchi bitta tori esa **si** kichik oktava tovushlariga sozlanadi. Torlar oralig‘i sof kvarta intervaliga teng.



Ovoz hajmi (diapazoni) **si** kichik oktavadan **si** uchinchi oktavagacha.



Lekin uning ovozi **si** kichik oktavadan **mi** ikkinchi oktavagacha bo'lgan oraliqda yaxshi jaranglaydi.




Chalish usullari qashqar rubobi sozi singaridir. Uning ovozi tiniq, yumshoq, jarangdor. U yakka ijroda hamda ansambl tarkibida ishlatiladi.

Alt rubobi- bu cholg'u ham yangidan yasalgan bo'lib, o'rta registr ovoziga ega bo'lgan sozdir. U ham qashqar rubobi singari beshta tordan iborat. Birinchi va ikkinchi torlari juft, uchinchi tori esa yakka. Torlarining barchasi po'lottan yasalgan. Birinchi juft tor **re** birinchi oktavaga, ikkinchi juft tor **lya** va uchinchi yakka tor esa **mi** kichik oktava tovushlariga sozlanadi.



Torlar oralig'i sof kvarta intervaliga teng. Notalari skripka kalitida yoziladi. Ovoz kengligi **mi** kichik oktavadan **re** uchinchi oktavagacha.




Qashqar rubobidagi barcha chalish imkoniyat va qulayliklar, metodik usullar ushbu rubobga ham taalluqlidir. Alt rubobini turli ansambl va orkestrlarda chalishdan tashqari, undan yakka ijro sifatida ham foydalanish mumkin. Chunki unda bunday ijro uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlar mavjud. U ham mizrob bilan chalinadi.

Afg'on rubobi. Ta'mirlangan afg'on rubobi tovush hosil qilish imkoniyatiga ko'ra, o'rta registrda eshitaladi. Afg'on rubobida ham beshta tor bo'lib, ushbu torlar ichak yoki kaprondan tortilgan. Uning birinchi juft tori **lya** va ikkinchi juft tori **mi** birinchi oktavaga, uchinchi yakka tori esa **si** kichik oktava tovushlariga sozlanadi. Notasi skripka kalitida yoziladi va bir oktava past ovoz beradi. Torlar orasi kvarta intervali bo'yicha sozlanadi.



Ovoz hajmi (diapazoni) **si** kichik oktvadan **mi** uchinchi oktavagacha.



Qashqar rubobini chalishdagi barcha imkoniyatlar afg'on rubobi uchun ham xos bo'lib, unda ikki va uchta tovushlarni ham birdaniga ijro etish mumkin. U mizrob yordamida chalinadi.

Shuni aytish lozimki, hozirgi afg'on rubobi bilan qadimgi an'anaviy afg'on rubobining farqli tomonlari bo'lgan. Masalan, an'anaviy afg'on rubobining dastasidagi pardalar soni kam bo'lib, ichak terisi bilan bog'langan. Bundan tashqari, uning asosiy beshta toridan tashqari tepa qismida qo'shimcha bir necha yordamchi torlar bo'lgan, ular ijro jarayonida musiqa asarlarini bezash uchun xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kholmurodovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
2. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
3. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 1. – С. 496-501..
4. Ramazonova O. K., qizi Mustaqimova G. G. Formation and Development of National Musical Traditions //european journal of innovation in nonformal education. – 2022. – T. file:///C:/Users/user/Downloads/Telegram Desktop/Бехруз Болтаев (2).rtf2. – №. 1. – С. 336-339
5. Kholmurodovna U. R. Formation of publicistic performing skills in singing. – 2021.O
6. Hamidovich B. B. INTERPRETATION OF THE METHODS OF BUKHARA SHASHMAKOM AND THE FUNDAMENTALS OF MAKOM //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – С. 1063-1066.
7. Hamidovich B. B. AL-FARABI AND IBN SINA'S CLASSIFICATION OF THE FOUNDATIONS OF THE THEORY OF" IYKUT" METHODS IN ORIENTAL MUSIC EDUCATION //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – С. 102-104.

8. Boltayev B. H. O ‘ZBEK MILLIY QO ‘SHIQCHILIGINING QADR TOPISH XUSUSIYATLARI //Journal of Universal Science Research. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 312-318.
9. Mustafoyev B. TA’LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-66.
10. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O’zbek Xalq Musiqa Merosda O’quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
11. Ortiqov O. R. MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA’LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
12. Ortiqov O. R. MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR JARAYONIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI (OLIY TA’LIM MUSSASALARI MISOLIDA) //Экономика и социум. – 2022. – №. 3-2 (94). – С. 1130-1135.
13. Ortiqov O. R. TALABALAR MA’NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA “QOBUSNOMA” ASARIDAN FOYDALANISH //Conferencea. – 2023. – С. 1-5.
14. Ortiqov O. R. O’QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-47.
15. Жураев Б. Т., Абдурахмонова Д. У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора //Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2019. – №. 14. – С. 77.
16. Жураев Б. Т. Социально-духовное развитие студентов //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 22-23.
17. Умурова М. Ё. The importance of using pedagogical technologies in special educational schools //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 22-2. – С. 24-26.
18. Умурова М. Ё. РОЛЬ ТРУДОВЫХ ПЕСЕН В ФОЛЬКЛОРЕ //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 43. – С. 97-101.
19. Umurova M. Y. Practical Possibilities of Spiritual-Moral Formation through Folk Songs //Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN. – Т. 2795. – №. 546X. – С. 55.